



## JENSHEN PLANT AND ITS MEDICINAL PROPERTIES

Norqulova Zarifa <sup>1</sup>, Ernazarova Mavluda <sup>2</sup>

Eshonqulova Komila <sup>3</sup>, Usmonova Mavjuda <sup>4</sup>

<sup>1</sup> 3rd year student of Samarkand Medical Institute, Faculty of Pharmacy

<sup>2,3,4</sup> Samarkand Medical Institute, Assistant of the Department of Pharmacology

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4766530>

### ARTICLE INFO

Received: 5<sup>th</sup> May 2021  
Accepted: 10<sup>th</sup> May 2021  
Online: 15<sup>th</sup> May 2021

### KEY WORDS

*root of life, pre-stress condition, ginseng extract, hypertension, hypotension, bronchitis.*

### ABSTRACT

*This article provides information about the ginseng plant and its medicinal properties, medicinal products of ginseng and methods of their use.*

## JENSHEN O'SIMLIGI VA UNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

Norqulova Zarifa <sup>1</sup>, Ernazarova Mavluda <sup>2</sup>

Eshonqulova Komila <sup>3</sup>, Usmonova Mavjuda <sup>4</sup>

<sup>1</sup> Samarqand davlat tibbiyot instituti, Farmatsiya fakulteti 3 kurs talabasi

<sup>2,3,4</sup> Samarqand davlat tibbiyot instituti, Farmakologiya kafedrasida assistenti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 5-May 2021  
Ma'qullandi: 10-May 2021  
Chop etildi: 15-May 2021

### KALIT SO'ZLAR

*hayot ildizi, stress oldi holati, jenshen ekstrakti, gipertoniya, gipotoniya, bronxit*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada jenshen o'simligi va uning shifobaxsh xususiyatlari haqida, jenshenning dorivor maxsulotlari va ularning qo'llanish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Jenshen (Panax ginseng) — araliyadoshlarga (Araliceae) mansub ko'p yillik o't. Sharqiy Osiyo, Xitoy va Koreyada tabiiy holda o'suvchi qadimgi o'simlik. Jenshen lotin tilidan tarjima qilinganda "hayot ildizi" degan ma'noni anglatadi.

O'simlik inson organizmiga tinchlantiruvchi va og'riq qoldiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Jenshen kishida ishchanlik

qobiliyatini kuchaytiradi, o't moddasini organizmdan chiqarib yuboradi. Jenshenning shifobaxsh ta'siri natijasida kishida arterial qon bosimi me'yoriga keladi, endokrin tizimi ish faoliyati kuchayadi, qon tarkibida qand moddasi miqdori pasayadi. Jenshen asabiylashish, siqilish va tashvishlanish holatlarida tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.



«Jenshen» soʻzi xitoychadan tarjima qilinganda «hayot ildizi» degan maʼnoni bildiradi. Jenshenning bunday deb atalishi, ildizining shunchalik qimmat boʻlishi bejiz emas. Jenshenning ildizidan ogʻir kasalliklarni davolaydigan dorilar tayyorlanadi.

Biroq jenshen juda kam uchraydigan oʻsimlik, u yil sayin kamayib borardi. Shunda odamlarda jensheni oʻzlari yetishtirishlari mumkin emasmikan, degan fikr paydo boʻldi. Bu ish osonlikcha amalga oshmadi, lekin odamlar boʻsh kelmadilar, chunki gap minglab bemorlarning hayotini saqlab qolish ustida borardi. Nihoyat odamlar buning uddasidan chiqdilar. Endilikda jenshen ildizini qidirib taygaga borishning hojati yoʻq, kishilar uni maxsus jenshenzorlarda yetishtirishni oʻrganib oldilar. Bunday jenshenzorlar hozir Uzoq Sharq va Oʻrta

Osiyoda mavjud. Shuningdek, bu oʻsimlik Shimoliy Kavkazning togʻliq rayonlarida, Ukraina va Moldaviya respublikalarida ham oʻstiriladi.

Tarkibida mavjud boʻlgan bir qancha foydali kimyoviy moddalar sababli jenshen qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda keng qoʻllanilgan. Oʻsimlik ildizida alkaloidlar, turli shiralar, C vitamini, oltingugurt va fosfor, hushboʻy moddalar, shuningdek, mikro va makroelementlar bor. Judakoʻp turli kasalliklarni davolashda xalq tabobatida ham qoʻllaniladi. Jenshen organizmning erta qartayishiga yoʻl bermaydi. Bu oʻsimlik immunitetni kuchaytiradi, tanadagi ortiqcha yogʻlarni erishiga yordam qiladi. Xalq tabobatida jenshen damlama, qaynatma, malham choy sifatida va qurutulganini yanchib isteʼmol qilinadi.





Tomirlardagi og'riqni qoldirish va shamollashda tog' asalidan 1 kg. Olinadi va unga 50 g. Maydalangan jenshen ildizi solinadi. Mazkur asal solingan idish qorong'i joyda bir necha hafta saqlanadi. Tindirilgach, asaldagi jenshen ildizi qoldiqlari butkul olib tashlanadi. Bu tabiiy doridan kuniga bir choy qoshiq ichib, kishi tomirlaridagi va boshdagi og'riqlardan xalos bo'ladi, tetiklashadi, shamollashdan ham forig' bo'ladi.

Azaldan hozirgi farmsanoat rivojlanmagan paytlarda ham insonlarda jinsiy kuchni orttirishga intilish bo'lgan va bu yo'lda izlanishlar olib borishgan quyida shular haqida ma'lumotlar beramiz. Afrodoziyak o'simliklarning eng boshida Jenshen turadi, qolgan o'simliklarga nisbatan ham ko'proq izlanishlar aynan jenshen ustida olib bo'rilgan.

Jenshen qon shakillanishini va xotirani yaxshilaydi, modda almashinuvi va yurak-qon tomirlari faoliyatini me'yoriga keltiradi. Jenshen – ko'rish qobiliyatini yaxshilovchi, jarohatlarni bitishiga yordam beruvchi, og'riqni qoldiruvchi, asab tizimini tinchlantiruvchi o'simlik. Jenshen organizmning erta qarishiga yo'l bermaydi. Bu o'simlik immunitetni kuchaytiradi, tanadagi ortiqcha yog'larni erishiga yordam qiladi. Xalq tabobatida jenshen damlama, qaynatma, malham choy sifatida va qurutulganini yanchib iste'mol qilinadi.

Jenshenli choy inson salomatligiga ajoyib ta'sir ko'rsatadi. Bunday choyni tayyorlash uchun quritib yanchilgan jenshen ildizi ustidan qaynab turgan suv quyiladi, ustini yopib 20 daqiqa tindiriladi, so'ng dokadan o'tkaziladi. Choyni sutkasiga 3 maxal 1 osh qoshig'idan 1 oy davomida ichiladi, so'ng 30 kun tanaffus qilib, muolaja kursi takrorlanadi. Bunday damlangan choy organizmni umumiy mustahkamlovchi, kuch-quvvat bag'ishlovchi, tinchlantiruvchi xususiyatlarga ega. O'simlikning faol

moddalari asab tizimi faoliyatini mustahkamlaydi, jismoniy va aqliy charchoqni pasaytiradi, yurak va qon tomirlari faoliyatini yaxshilaydi, ishtahani ochadi, arterial qon bosimini me'yoriga keltiradi, ishchanlik qobiliyatini oshiradi. Tarkibidagi mikro elementlar soyasida, qon tomirlarni ham arterial ham venoz sistemasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tufayli, jinsiy olat erektsiyasini va uzoq qattiq qolishligini ta'minlaydi, qarishlikni oldini olish hususiyati bilan jinsiy aktivlik va maylni normallashtiradi. Faqat shuni unutmaslik kerak haqiqiy jenshenning foydasi iste'mol qilingandan keyin darhol sezilmaydi, yillar davomida organizmdagi mikroelementlarni, foydali moddalarni o'rnini to'ldirib borilishi bilan foydasi namoyon bo'ladi, shuni unutmasligimiz kerak-ki, bugungi kunda savdo-foyda maqsadida turli dori vositalariga ham jensheni nomini taqab, aslida tarkibida kimyoviy moddalar qo'shib chiqarilayotgan mahsulotlar juda ham ko'p.

Jenshen ekstrakti charchoqni bartaraf etish samaradorligini oshirish, rag'batlantirish va xotirani yaxshilash uchun mo'ljallangan noyob dori hisoblanadi. Bu dori jinsiy vazifasini rag'batlantirish, immunitetni mustahkamlash, gipotenziya, shuningdek zaiflashib qolgan mutaxassislar uchun buyuriladi. Shuningdek, u yuqori ruhiy stressda samarali bo'ladi.

Jenshendani tayyorlangan turli dorilar quyidagi kasalliklarni davolashda ishlatiladi:

- uyqusizlik, siqilish va asab bilan bog'liq turli xastaliklar
- davomli jismoniy va aqliy zo'riqishlar
- erkaklar va ayollar kasalliklarida
- modda almashinuvi buzilganda
- og'ir xastalik va jarrohlik amaliyotlari o'tkazilgandan keying davolanish jarayonlarida

Bundan tashqari jenshenning turli bo'laklaridan tayyorlangan damlama va



eliksirlardan har xil ko'rinishdagi kasalliklarning oldini olish, tana umumiy sog'ligini tiklash, inson organizmidagi turli bezlar faoliyatini izga solishda foydalaniladi.

Jenshen iste'mol qilish mumkin bo'lmagan holatlar.

Davolanish maqsadida jenshenni iste'mol qilish biron a'zodan qon oqishi, homiladorlik, surunkali va yuqumli kasalliklarda va turli shamollashlarda mumkin emas. Jenshen iste'mol qilishning yomon oqibatlari yo'q, lekin u kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lganidan, qattiq bosh og'rig'i keltirib chiqarishi, qon bosimi bor kishilarda, salomatlikning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. 45 yoshga yetmaganlar kishilarga uni iste'mol qilish mumkin emas. Ba'zi kishilarda ko'ngil aynishi, qayt qilish, qon

bosimi ko'tarilishi mumkin. Shu belgilar kuzatilsa, darhol shifokorga murojaat qilishi mumkin.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Jenshen preparatlari immunitetni ko'tarish, organizmni umumiy mustahkamlashga yordam beradi, tananing himoya funksiyalarini oshiradi va tiklanish jarayonlarini oshiradi. Jenshen preparatlaridan samollash, yo'tal, bronxit, gipertoniya, gipotoniya, gripp, immunitet pasayishi, impotensiya, kamquvvatlik va hokazo bir qator kasalliklarni davolashda foydalanilsa bo'ladi. Lekin jenshen mahsulotlaridan foydalanishda albatta shifokor bilan maslahatlashish va shifokor tavsiyasi bo'yicha istemol qilish foydadan xoli bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.H. Xolmatov O'. Ahmedov. Farmakagnoziya - 2007
2. ZarifjonMurodov, urolog-androlog
3. Milliy entsiklopediya 2000-2005
4. Ayupov R.X. "Shifobaxsh jenshen"